

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024 1-SON
ILOVA TOPLAM: GEOGRAFIYA

НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Hududiy tashkil etishning ba'zi nazariyalarida aholi omilining o'rni va ahamiyati	6
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlar vertikal tabaqalanishini matematik modellashtirish.....	15
Q.S.Yarashev, B.B.Yusupov Ekoturizm resurslardan oqilona va samarali foydalanishning ayrim masalalari (Dehqonobod tumani misolida)	22
T.J.Jumayev, Sh.B.Qurbonov, K.O.Daljanov Tog'li hududlarda qishloq xo'jaligini rivojlantirish va hududiy tashkil etishning ba'zi masalalari	30
O.T.Mirzamahmudov Farg'ona vodiysi adir agrolandshaftlari va ularni joylashtirish yo'llari	36
O.M.Qo'ziboyeva, Z.Sherbayeva Janubiy Farg'ona daryolarining suv rejimiga iqlim o'zgarishining ta'siri	41
G.X.Xolbayev, X.T.Egamberdiyev Xavfli meteorologik hodisalarning takrorlanuvchanligini baholash (Farg'ona viloyati misolida) ..	45
Sh.Z.Jumaxanov, Sh.Sh.Zoirjonov Aholi xulq-atvorining etnolingvistik xususiyatlarini sotsiologik so'rovlar asosida o'rganish	54
R.Y.Xoliqov Farg'ona vodiysi paragenetik landshaftlari o'rtasidagi geokimyoviy migratsion jarayonlarning geoekologik muhitga ta'siri.....	61
K.M.Boymirzayev, I.K.Mirzahmedov Landshaftlarning antropogen modifikatsiyalanishi va ularning tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari.....	64
Y.I.Ahmadaliyev, O.I.Abdug'aniyev, J.G'.Eminov Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar tizimining reprezentativligi va samaradorligini baholash	68
D.G'.Mo'minov, O.Q.Tobirov Farg'ona viloyati ekoturistik imkoniyatlarini baholashning bazi jihatlarini.....	81
K.M.Xakimov Antroponimik model: milliy familiya va uning zaruriyati haqida	87
Y.B.Raxmatov Buxoro viloyatining cho'l xududlarida suvdan samarali foydalanishning geografik muammolari	93
R.T.Pirnazarov Shohimardonsoy havzasida turizmni rivojlantirishning tabiiy geografik imkoniyatlari	96
P.R.Qurbonov Janubiy O'zbekistonda urbanizatsiya rivojlanishining sotsial jihatlarini.....	103
H.A.Oblaqulov, Y.R.Buranov, M.Sh.Qo'ziyeva Navoiy viloyat aholisining dinamikasi va hududiy joylashuvi.....	113
Z.X.Madaminov Iste'mol geografiyasi fani, uning rivojlanishi, iste'mol savatchasi tushunchasi va uni tadqiq qilish	118
E.G'.Mahkamov Farg'ona vodiysida turistik-rekreatsion faoliyatni tashkil etishni takomillashtirish yo'nalishlari	122
Z.A.Temirov Mehnat resurslari va iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi o'rtasidagi hududiy muammolarni geografik o'rganish.....	128
M.M.Avezov, A.M.Elmurotova Kattaqo'rg'on tumanining geologik va orografik tuzilishiga umumiy tabiiy geografik tavsif	135
M.R.Usmanov O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar.....	140

JANUBIY O'ZBEKISTONDA URBANIZATSIYA RIVOJLANISHNING SOTSIAL JIHATLARI

СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ УРБАНИЗАЦИИ В ЮЖНОМ УЗБЕКИСТАНЕ

SOCIAL ASPECTS OF URBANIZATION DEVELOPMENT IN SOUTHERN UZBEKISTAN

Qurbonov Pahlavon Rustamovich¹¹Qarshi davlat universiteti dotsenti, g.f.n.**Annotatsiya**

Maqolada urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishning sotsial jihatlari Janubiy O'zbekiston misolida tadqiq etilgan. Maqsaddan kelib chiqqan holda, mintaqa shaharlar to'ri, tarkibi va iyerarxiyasi bilan xizmatlar sohasi o'rtasidagi aloqadorlik ochib berilgan. Ya'ni, ijtimoiy sohalar rivojlanib borishi shaharlarning yiriklashuviga xizmat qilish bilan birgalikda, shahar joylar aholi sonidan kelib chiqqan holda o'zlarida eng muhim va yirik xizmatlar majuini jamlagan.

Urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishida sotsial sohalarning ta'sirini o'rganish, shaharlar iyerarxiyasiga mos tarzda xizmat ko'rsatish tarmoqlarining sifat va miqdor jihatdan kengayib borishini tahlil qilish, ijtimoiy sohalarni shahar hosil qiluvchi omil sifatida Janubiy O'zbekiston misolida o'rganish ishning maqsad va vazifalarini belgilab beradi.

Maqolaning uslubiy asosini kompleks yondoshuv tashkil etib, bunda geografik taqqoslash, tizim-tarkib, tarixiy, statistik, matematik, hududiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Tadqiqot ishi maxsus ilmiy adabiyotlar, kartografik manbalar bilan bir qatorda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari statistika boshqarmalaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida amalga oshirilgan.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari – savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash tizimi keltirilgan aholi punktlari, ya'ni markaziy o'rinlarda turli darajada joylashtiriladi. Bu joylarning har birini o'ziga xos va o'ziga mos ta'sir, xizmat ko'rsatish doirasi bor. Bu borada, shaharlar o'ziga xos ma'muriy (viloyat va tuman markazlari) va iqtisodiy (yirik sanoat ishlab chiqarish obyektlari, transport tugunlari) "poytaxt" vazifasini bajarish bilan bir qatorda o'sha hududning ijtimoiy sohalar majmuining markazi ham hisoblanadi.

Аннотация

В статье социальные аспекты развития процессов урбанизации изучаются на примере Южного Узбекистана. Исходя из цели, раскрывается взаимосвязь сети, состава и иерархии региональных городов и сферы услуг. То есть развитие социальной сферы, наряду с обслуживанием роста городов, городских территорий собрало наиболее важный и самый большой набор услуг, рассчитанный на население.

Изучить влияние социальной сферы на развитие процессов урбанизации, проанализировать качественное и количественное расширение сетей обслуживания в соответствии с иерархией городов, изучить социальную сферу как градообразующий фактор на примере Южного Узбекистана, поставив цели и задачи работы дадут.

Методологической основой статьи является комплексный подход, в котором используются такие методы, как географическое сравнение, системно-содержательный, исторический, статистический, математический, территориальный анализ. Исследовательская работа проведена на основе анализа данных статистических управлений Сурхандарьинской и Кашкадарьинской областей, а также специальной научной литературы и картографических источников.

Сферы общественного обслуживания - торговля, образование, система здравоохранения расположены в населенных пунктах, то есть в центральных местах, на разных уровнях. Каждое из этих мест имеет свое уникальное влияние и сферу услуг. В связи с этим города рассматриваются как центр комплекса социальной сферы данного региона, помимо выполнения функции специфической административной (губернские и районные центры) и экономической (крупные промышленные производства, транспортные узлы) «столицы».

Abstract

In the article, the social aspects of the development of urbanization processes are studied on the example of Southern Uzbekistan. Based on the purpose, the relationship between the network, composition and hierarchy of regional cities and the service sector is revealed. That is, the development of social spheres, together with serving the growth of cities, urban areas have collected the most important and largest set of services based on the population.

To study the influence of social spheres in the development of urbanization processes, to analyze the qualitative and quantitative expansion of service networks in accordance with the hierarchy of cities, to study social spheres as a city-forming factor in the case of Southern Uzbekistan, setting the goals and objectives of the work will give.

The methodological basis of the article is a complex approach, in which methods such as geographical comparison, system-content, historical, statistical, mathematical, territorial analysis are used. The research work was carried out based on the analysis of data from statistical departments of Surkhandarya and Kashkadarya regions, as well as special scientific literature and cartographic sources.

Areas of public service - trade, education, health care system are located in settlements, that is, in central places, at different levels. Each of these places has its own unique influence and scope of service. In this regard, cities are considered to be the center of the complex of social spheres of that region, in addition to performing the function of a specific administrative (provincial and district centers) and economic (large industrial production facilities, transport hubs) "capital".

Kalit so'zlar. urbanizatsiya, shahar, markaziy shahar, shaharlar iyerarxiyasi, shaharlar funksiyasi, shaharlar ixtisoslashuvi, ijtimoiy sohalar, shahar turmush tarzi, xizmat ko'rsatish sohalar, chakana savdo.

Ключевые слова. урбанизация, город, центральный город, иерархия городов, функции городов, специализация городов, социальные сферы, городской образ жизни, сфера услуг, розничная торговля.

Key words. urbanization, city, central city, hierarchy of cities, function of cities, specialization of cities, social spheres, urban lifestyle, service industries, retail trade.

KIRISH

Shaharlar rivojlanishining sotsial omillari tahlil qilinganda avvalambor ularga xizmat qiluvchi va shahar yaratuvchi (tashkil etuvchi) jihatlarni aniqlab olish talab etiladi. Binobarin, ushbu maqolada umuman sotsial sohalar emas, aholiga xizmat ko'rsatuvchi, ularning shahar hosil qiluvchi xususiyatlari inobatga olinadi. Bevosita mavjud shaharlar aholisiga xizmat ko'rsatuvchi sohalarining esa kengroq ijtimoiy geografik muhitning shakllanishiga ta'siri kam. Shu bois, urbanizatsiya nuqtayi nazaridan shaharga xizmat qiluvchi sohalar emas, balki bu sohalarining shahardan tashqariga ta'siri katta ahamiyatga ega [2].

ISHNING MAQSADI VA VAZIFALARI

Ishning **maqsadi** - urbanizatsiya jarayonlari rivojlanishida sotsial sohalarining ta'sirini o'rganish, shaharlar iyerarxiyasiga mos tarzda xizmat ko'rsatish tarmoqlarining sifat va miqdor jihatdan kengayib borishini Janubiy O'zbekiston misolida tahlil qilishdan iborat.

Maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- Ijtimoiy sohalarini shahar hosil qiluvchi omil sifatida o'rganish;
- Aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini hududiy tashkil etish bosqichlarini tasniflash;
- Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini hududiy, miqdoriy va sifat jihatdan tadqiq etish;
- Chakana savdo va xizmatlar sohasining tarkibi va tuzilishi, ularning mintaqaviy xususiyatlarini o'rganish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ilmiy jihatdan bu borada D.J.Fridmanning "Markaz-periferiya", T.Xegerstrandning "Yangiliklarning diffuzion tarqalishi", V.Kristallerning "Markaziy o'rin" g'oyalari muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

Nemis olimi V.Kristaller o'zining "Markaziy o'rinlar" g'oyasini vatandoshlari I.Tyunen va A.Veber g'oyalaridan farqli ravishda, aynan ijtimoiy sohalar doirasida ishlab chiqqan. V.Kristallerning ilmiy konsepsiyasining mohiyatini aholiga xizmat ko'rsatish sohalarini aholi punktlarining katta kichikligiga qarab pog'onasimon joylashtirish tashkil qiladi. Shu jihatdan bu g'oyada asosiy tushuncha sifatida shaharlarning iyerarxik tizimi xizmat qiladi. Bunda ularning markaziyiligi, tovar va xizmatlarning atrof uchun amalga oshirilishi, atrofida ularni qabul qiluvchi hududlarning mavjudligi hamda turli yiriklikdagi aholi punktlari, ya'ni xizmat ko'rsatish markazlari va ularni qabul qiluvchi xudud o'rtasidagi masofa, tovarlarni tarqalish radiusi va qulayligi kabilar asosiy mazmunga ega [1].

Maqolaning uslubiy asosini kompleks yondoshuv tashkil etib, bunda geografik taqqoslash, tizim-tarkib, tarixiy, statistik, matematik, hududiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Tadqiqot ishi maxsus ilmiy adabiyotlar, kartografik manbalar bilan bir qatorda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari statistika boshqarmalaridan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida amalga oshirilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ma'lumki, kichik qishloqlarda, bizning sharoitimizda, boshlang'ich maktab, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishning birlamchi shaxobchalari, shunga mos holda savdo do'konlari tashkil etiladi. Aholi joylashuv tizimida yuqori pog'onalarga ko'tarilgan sari bunday sohalar miqdor va mohiyat jihatdan boyib, ko'payib boradi. Umuman olganda, viloyat miqyosida qaralganda aholiga tibbiy, savdo, ta'lim, transport va boshqa xizmatlarni hududiy tashkil etishda 5 ta asosiy bo'g'inni ajratish mumkin:

1. qishloq aholi punkti;
2. qishloq fuqarolar yig'ini markazi;
3. qishloq tuman markazi;
4. tumanlararo yoki okrug markazi;
5. mintaqaviy markaz yoki viloyat markazi.

Iyerarxik sharoitda joylashgan bunday markazlarda ijtimoiy sohalar bo'yicha xizmat ko'rsatish oddiydan murakkabga, elementar shakldan majmua tomonga o'zgarib boradi. Masalan, oddiy qishloq aholi manzilgohlarida ambulatoriya punkti bo'lishi mumkin, kattarog'ida qishloq vrachlik punkti (QVP), tuman markazida tumanga xizmat qiluvchi poliklinika va kasalxonalar, okrug

markazida maxsus tibbiy xizmat ko'rsatish obyektlari, viloyat markazida yanada mukammalroq va quyi pog'onalarda uchramaydigan noyob tibbiy xizmat ko'rsatish shaxobchalari joylashtiriladi.

Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekiston sharoitida taxminan har 3 yoki 4 ta qishloq aholi manzilgohiga bitta QVP to'g'ri keladi. Bu deyarli ma'muriy-xududiy bo'linishda qishloq fuqarolar yig'ini (QFY) darajasiga mos tushadi[4]. Undan keyingi pog'onada esa tuman markazi turadi va u joyning demografik sig'imiga qarab QFY va QVP larni o'z ta'sir doirasiga oladi. Okrug yoki tumanlararo hamda mintaqaviy markazlarining xizmat ko'rsatish doirasi ham shu tartibda kengayib boradi. Agar ushbu tizim Surxondaryo viloyati darajasida qaralganda, bu yerda mintaqaviy markaz Termiz, okrug markazi sifatida Termiz va Denov, tumanlar markazi sifatida esa 14 ta shahar va shaharchalar xizmat qiladi. Viloyatda 114 ta QFY va 859 ta qishloq aholi manzilgohlari bor (01.01.2023 y.).

Qashqadaryo viloyatida, yuqorilarga mos holda, quyidagilarni ajratish mumkin:

- I. Viloyat markazi – Qarshi shahri;
- II. Tumanlararo yoki okrug markazlari – Qarshi, Shaxrisabz, G'uzor shaharlari;
- III. 14 ta tuman markazlari funksiyasini bajaruvchi shahar va shaharchalar;
- IV. 148 QFY markazlari;
- V. 1046 ta qishloq aholi punktlari.

Shaharlar qishloqlarga nisbatan aholi soni, uning mujassamlashuv va bandlik darajasining yuqoriligi, uy joylarning rejali asosda bunyod etilganligi, transport va kommunal tarmoqlar bilan yaxshi ta'minlanganligi tufayli ijtimoiy va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini joylashtirishda bir qancha afzalliklarga ega. Janubiy O'zbekiston mintaqasining ham aksariyat shaharlari qishloq tumanlarining ma'muriy markazlari vazifasini bajaradi. Bu holat barcha ijtimoiy soha obyektlarining yuqori bo'g'inini shaharlarda joylashishi va amalda butun tuman aholisiga xizmat ko'rsatishini taqozo etadi. Shu sababdan shaharlarda ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarining son va sifat darajasini mutanosib ravishda ko'tarib borish hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, Janubiy O'zbekiston shaharlarining to'ri va tizimi yaxshi rivojlanmagan, ularning iqtisodiy negizi ham uncha kuchli emas. Agar bu borada bevosita iqtisodiy funksiyalar nazarda tutilsa, Qashqadaryo viloyatida sanoat markazlari sifatida Qarshi, Muborak, Shaxrisabz, resurs shaharcha Nuriston, transport markazi sifatida G'uzor kabilarni ko'rsatish mumkin. Iqtisodiy salohiyati past hisoblangan Surxondaryo viloyatida esa yaqqol ko'zga tashlanadigan sanoat shaharlari hozircha mavjud emas. Ayni vaqtda ko'pchilik shahar va shaharchalar rayon markazi funksiyasini bajaradi. Bu esa, o'z navbatida, ularning rayon hosil qiluvchi salohiyatiga muvofiq tuman aholisiga xizmat ko'rsatadi. Jumladan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarining shahar va qishloq aholisi respublikaning boshqa mintaqalariga qaraganda nisbatan tezroq ko'payib bormoqda. Aholi sonining ko'payishi, uning yosh tarkibida ham shahar joylarda ijtimoiy sohalarning kengroq rivojlanishini talab etadi. Qolaversa, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Obod qishloq" va "Obod mahalla" Davlat dasturlarida belgilangan barcha tadbirlarning amalga oshirilishi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy markazi sanalgan shahar va shaharchalarga yangi vazifalar qo'yadi.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari orasida o'z ahamiyatiga ko'ra ta'lim, sog'liqni saqlash, chakana savdo va pullik xizmatlar yetakchi rol o'ynaydi. Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari ijtimoiy sohalarning rivojlanganlik darajasiga ko'ra respublikamizning boshqa hududlaridan keskin farq qilmasada, ayni bir vaqtda ular qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega.

Sog'liqni saqlash. Mintaqa sog'liqni saqlash obyektlari joylashish geografiyasini tadqiq qilish va o'rganishda shahar va shaharlarchalar asosiy o'rin tutadi. Chunki mavjud tibbiy muassasalar va ulardagi koyka – o'rinlarning deyarli 90 foizdan ortig'i shahar joylar hissasiga to'g'ri keladi. 2023-yil yanvar holatida Janubiy O'zbekistonda jami 158 ta shifoxona va 933 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari aholiga tibbiy xizmatni amalga oshirgan. Bu ko'rsatkich respublikada mavjud shifoxonalarning 11,9 foiz-dan ortiqrog'ini va ambulatoriya-poliklinikalarning 13,4 foizni tashkil qiladi.

1-jadval ma'lumotlaridan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari miqyosida shifoxonalar va koyka-o'rinlar soni bo'yicha farqlarni ko'rish mumkin. Bunda ustunlik aholi va shaharlar soni nisbatan ko'p bo'lgan Qashqadaryo viloyati foydasiga bo'lib, mintaqadagi tibbiyot muassasalaridagi koyka – o'rinlarning deyarli 54,4 foizi aynan shu hududga to'g'ri keladi. Biroq, ushbu ustunlik nisbiy bo'lib, mazkur miqdor aholining koyka-o'rinlar bilan ta'minlanish darajasini belgilab bermaydi. Ushbu ko'rsatkichni o'zida aks ettiruvchi har 10 000 kishiga to'g'ri keladigan shifoxonadagi o'rinlar soni bo'yicha esa Surxondaryo viloyati kichik farq bilan oldinda turadi.

O'z navbatida, iqtisodiy rayon tuman va shaharlari doirasida shifoxona o'rinlarining taqsimlanishi bo'yicha katta tafovutlar mavjud. Har o'n ming aholiga to'g'ri keluvchi o'rinlar bilan Qarshi, Termiz, Shaxrisabz, Denov singari mintaqaning markaziy shifoxonalari joylashgan yirik shaharlar hamda o'zining bahavo tabiati va turli xil shifobaxsh mineral resurslariga ega Kitob, Boysun kabi shaharlari Janubiy O'zbekiston o'rtacha (har 10000 aholiga 34.0 ta koyka-o'rin) ko'rsatkichidan yuqori.

Qulay tabiiy va rekreatsiya sharoiti tufayli ushbu tumanlarda ko'plab sanatoriya-sihatgohlar (Qarshi, Denov, Shaxrisabz), maxsus turdagi kasalliklarga ixtisoslashgan shifoxonalar (Qarshida ruhiy kasalliklar, Kitobda sil kasalliklari), bolalar oromgohlari (Sariosiyo, Yakkabog', Oltinsoy, Kitob) bunyod etilgan. Biroq, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari yetarlicha shakllanmagan Qumqo'rg'on, Chiroqchi, Uzun, Sho'rchi, G'uzor, Dehqonobod, Qamashi tumanlari bu borada iqtisodiy rayon o'rtacha darajasidan ancha kam ekanligini jadvaldan ko'rish mumkin.

Qarshi tumanida ham vaziyat yaxshi emasdek tuyuladi. Aslini olganda mazkur tuman aholisi ko'proq Qarshi shahrining tibbiyot muassasalari xizmatidan foydalanadi. Xuddi shunday holatni katta va o'rta shaharlarga tutash joylar qishloq tumanlarda ham ko'rish mumkin.

1-jadval

Janubiy O'zbekiston tumanlarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish holati (01.01.2023 yil)

T/r	Hududlar nomi	Shifoxonalar		Har 10 000 aholiga shifoxonadagi o'rinlar soni	Har 10 000 aholiga ta'minlanishi	
		soni	koyka-o'rin soni		vrachlar	o'rta tibbiyot xodimlari
	Janubiy O'zbekiston	158	21331	34,0	18,4	96,7
	Surxondaryo viloyati	67	9731	34,7	17,8	83,4
1	Angor	2	298	21,2	14,2	64,1
2	Bandixon	1	150	18,6	12,4	61,9
3	Boysun	2	415	34,1	8,2	65,6
4	Denov	14	1288	31,5	12,2	53,7
5	Jarqo'rg'on	4	476	20,5	8,6	68,9
6	Muzrabot	1	261	17,4	6,6	66,5
7	Oltinsoy	2	473	25,2	10,6	74,5
8	Sariosiyo	3	565	25,4	12,8	58,4
9	Termiz	8	1090	132,4	18,5	72,9
10	Uzun	1	283	15,4	12,2	76,4
11	Sherobod	4	500	24,3	11,5	58,2
12	Sho'rchi	3	344	15,4	13,0	67,3
13	Qiziriq	3	319	26,3	8,2	66,0
14	Qumqo'rg'on	2	405	16,3	8,0	52,2
15	Termiz shahri	17	2864	146,3	107,3	352,6
	Qashqadaryo viloyati	91	11600	33,3	19,0	110,0
1	Dehqonobod	2	310	19,2	6,4	89,6
2	Kasbi	1	396	19,2	9,6	100,8
3	Kitob	8	1090	39,8	21,7	123,1
4	Koson	6	504	16,4	9,8	78,8
5	Ko'kdala	1	265	16,3	5,5	38,2
6	Mirishkor	5	310	23,7	7,9	78,9
7	Muborak	3	318	32,6	10,9	108,8
8	Nishon	3	382	24,6	12,3	92,2
9	Chiroqchi	4	435	15,3	11,5	118,9
10	Shaxrisabz	7	476	21,6	17,3	90,8
11	Yakkabog'	4	624	21,7	14,5	86,7
12	Qamashi	2	484	17,4	10,5	83,7
13	Qarshi	2	216	7,5	15,1	113,0
14	G'uzor	3	290	13,8	13,8	124,3
15	Qarshi shahri	34	4877	169,6	83,1	117,4
16	Shahrisabz shahri	6	623	41,4	27,6	256,1

Jadval Surxondaryo va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmalari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi rasmiy sayti ma'lumotlariga ko'ra, 1991-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davrda butun respublikaning sog'liqni saqlash tizimida shifoxonalar, ulardagi o'rinlar va har 10 ming aholining ushbu ko'rsatkichlar bilan ta'minlanish darajasida muntazam kamayish tendensiyasi kuzatilgan. Bunga mazkur yillarda iqtisodiy-ijtimoiy muammolar ta'sirida tug'ilish darajasining kamayishi bilan tug'ruqxona majmualaridagi o'rinlarning qisqarishi, tibbiyot sohasida tartibsiz xususiyashtirish jarayonlari va moliyalashtirish bilan bog'liq muammolar natijasida ko'plab shifoxonalarning yopilib ketishi, aksincha, kunduzgi shifoxonalar va statsionar davolash muassasalari sonining ortib borishi sabab bo'lgan. 2017-yildan boshlab, butun respublikada sog'liqni saqlash sohasiga e'tiborning ortishi natijasida yana shifoxonalar soni orta boshlagan va 2022-yil yakunlariga ko'ra ularning soni 1328 taga yetgan. Ammo, hamon 1991-yildagi miqdorga yetgani yo'q (1388 ta).

Shuningdek, qishloq joylarda yangi QVP larning qurilishi bois mavjud aholining birlamchi tibbiy yordamni bevosita shu yerda olishi shaharlardagi tuman markaziy shifoxonalarning miqdor ko'rsatkichlariga ta'sir etmoqda. Mazkur holat Janubiy O'zbekiston mintaqasiga ham tegishli. Jumladan, 1991-yilga nisbatan 2022-yilda shifoxonalar soni 227 tadan 158 taga yoki 69,6 foizga, ulardagi o'rinlar soni 36,5 mingdan 21,3 mingga yoki 58,3 foizga kamaygan. Har 10 000 aholiga shifoxonadagi o'rinlar soni esa 48,8 tadan 34,0 taga tushib qoldi.

Ko'rilayotgan davr mobaynida asosiy manfiy ko'rsatkich Surxondaryo hisobiga to'g'ri kelib, ushbu viloyatda shifoxonalar soni 43 taga, o'rinlar soni 6500 taga qisqargan. Qashqadaryo viloyatida ham tibbiyot muassasalarining kamayishi kuzatilgan bo'lsada (1991 yilda 117 tadan – 2022-yilda 91 taga), u sezilarli darajada emas.

Shu o'rinda sog'liqni saqlash sohasini yetarli kadrlar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlash lozim. Chunki, aholining tibbiy ehtiyojlarini qondirish, ularga ko'rsatiladigan tibbiy xizmatning miqdor va sifat jihatdan yuqori bosqichga ko'tarish bevosita malakali kadrlar bilan ta'minlanishga bog'liq bo'ladi. Janubiy O'zbekiston aholisining muntazam o'sib borishi oliy va o'rta ma'lumotli tibbiyot mutaxassislariga bo'lgan talabning oshishiga olib kelmoqda.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra 2022 yilda har o'n ming aholiga vrachlar bilan ta'minlanishning eng past ko'rsatkichi Ko'kdala (5,5), Dehqonobod (6,4), Muzrabot (6,6), Mirishkor (7,9), Qumqo'rg'on (8,0), Qiziriq (8,2), Boysun (8,2), Kasbi (9,6) kabi zaif urbanizatsiyalashgan tumanlarida qayd etilgan. E'tiborli jihati shundaki, Qumqo'rg'on va Boysundan tashqari barcha tumanlarning ma'muriy markazi shaharchalarga to'g'ri keladi. Qishloq tumanlarining o'rta tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganlik holatida ham yuqoridagi vaziyatni kuzatishimiz mumkin. Biroq, vrachlardan farqli ravishda mazkur bo'g'in mutaxassislari sonida kichik bo'lsada, o'sish jarayoni kuzatilmog'da.

Oliy ta'lim. Butun respublikada bo'lgani kabi Janubiy O'zbekiston shahar va shaharchalarning xalq ta'limidagi o'rnini asosan mazkur tizimning yuqori bo'g'ini, ya'ni o'rta va oliy ta'lim muassasalari belgilab beradi. O'z navbatida, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, tadqiqot institutlari va universitetlar o'zlari joylashgan hududning nafaqat madaniy-ma'rifiy hayotiga, shu bilan birga iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, shahar hosil qilish jarayonida faol ishtirok etadi.

Shu boisdan oliy ta'lim muassasalari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning hududiy tashkil etilishini zamon va makon doirasida tadqiq qilish shaharlarning hozirgi va kelajakdagi ijtimoiy taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi. Yaqin yillargacha Janubiy O'zbekistonda faqatgina uchta oliy o'quv yurti bo'lib, ular viloyatlarning ma'muriy markazlari Qarshi (Qarshi davlat universiteti, Qarshi iqtisodiyot muhandislik instituti) va Termiz (Termiz davlat universiteti) shaharlarida joylashgan edi. Mazkur oliy ta'lim muassasalarida 1997/1998-o'quv yili davomida 10,7 ming talaba tahsil olgan bo'lsa, 2016/2017-o'quv yilida ular soni ikki baravarga ortib, 21,7 mingni kishini tashkil etgan. (Qashqadaryo 14,3 ming; Surxondaryo 7,4 ming). Shuningdek, XXI asrda axborot texnologiyalar sohasining rivojlanib borishini hamda, ushbu tarmoqni malakali mutaxassislarga bo'lgan talabini qondirish maqsadida 2006-yildan Qarshi shahrida Toshkent axborot texnologiyalari universitetining filiali ish boshlagan. Ammo, mintaqada oliy o'quv yurtlarining kamligi aholining o'sish ko'rsatkichlari va oliy ta'lim tizimi bilan qamrab olish o'rtasidagi nisbatning doimiy ravishda ortib borishiga, pirovard natijada sog'liqni saqlash, xalq ta'lim, sanoat va qishloq xo'jaligi kabi muhim sohalarda malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojning doimiy oshib borishi yirik muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'layotgan edi.

2017-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita tashabbuslari, Oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar natijasida Janubiy O'zbekistonning oliy

ta'lim muassasalari bilan ta'minlanganlik darajasi va qamrovi muttasil oshib bormoqda. Jumladan, so'nggi besh yilda Termiz shahrida – Toshkent tibbiyot akademiyasining Termiz filiali, Toshkent davlat agrar universitetining Termiz filiali (hozirda Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti), Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Termiz filiali (hozirda Termiz davlat pedagogika instituti), I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Termiz filiali (hozirda Termiz muxandislik-texnologiya instituti), Denov shahrida – Termiz davlat universitetining Denov filiali (hozirda Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti), Qarshi shahrida – Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari institutining Qarshi filiali (hozirda Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti) Shahrisabz shahrida - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Shahrisabz filiali (hozirda Shahrisabz davlat pedagogika instituti), Toshkent kimyo-texnologiya institutining Shahrisabz filiali tashkil etildi. Bundan tashqari keyingi yillarda oliy ta'lim sohasida yaratib berilgan juda katta imkoniyatlar natijasida Janubiy O'zbekistonda 7 ta nodavlat oliy ta'lim muassasalari (OTM) faoliyati yo'lga qo'yildi [6]. Mazkur nodavlat OTM ning beshtasi Qarshi shahrida (Qarshi xalqaro universiteti, Qarshi innovatsion ta'lim universiteti, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Turon universitet, Xalqaro innovatsion universitet), bittadan Qarshi tumanining Mirmiron shaharchasi (Axborot texnologiyalari va menejment universiteti) va Termiz shahrida (Termiz iqtisodiyot va servis universiteti) tashkil etilgan. OTMlarida 2021/2022 o'quv yilida 84,1 ming talaba tahsil olmoqda, natijada iqtisodiy rayon maktab, akademiklitsey va kollejlari bitiruvchilarini oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 30 foizdan oshdi. 2030-yilgacha oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 50 foizga yetkazish rejalashtirilgan bo'lib, bunda faqatgina viloyat va hududiy markaz vazifasini bajaruvchi Qarshi, Termiz, Shaxrisabz va Denov shaharlarigina emas, Koson, G'uzor, Kitob, Jarqo'rg'on, Sho'rchi va Qumqo'rg'on singari infratuzilmaga ega shaharlarda ham davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Oliy va o'rta maxsus ta'limning yana bir muhim jihati ularning katta qismi shaharlarda joylashganligi bois shaharlarning aholi soniga va migratsiyasi jaryonlariga muntazam ta'sir etib turadi. Aynan shu maqsadda Qarshi davlat universitetida olib borilgan tadqiqotlar natijasida 2022-2023-o'quv yilida 14585 ta talaba kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olishi, shundan faqatgina 2824 tasi Qarshi shahridan ekanligi ma'lum bo'ldi. Kasbi, Koson, Nishon, Mirishkor Qarshi tumanlarining har biridan 1000 dan ortiq, G'uzor, Yakkabog', Qamashi va Kitob tumanlarining har biridan 1000 ga yaqin talaba Qarshi Davlat universitetida ta'lim oladi. Ya'ni birgina Qarshi DU ta'lim olishi tufayli 10000 dan ortiq talaba Qarshi shahrida mayatniksimon migratsiya ishtirokchisiga aylanayapti. Bu esa o'quv yili davomida aksariyat talabalarining shaharlarda yashashi bois, o'sha shaharning ijtimoiy va transport tarmoqlariga ta'sir ko'rsatadi.


Iqtisodiy rayon shaharlarining ilm-fan, san'at, madaniyat, sport, turizm va dam olish obyektlarini markazi sifatidagi roli ham yildan-yilga ortib bormoqda. Bu sohalarni rivojlantirishda ayniqsa mintaqaning ko'hna va qadimiy Shaxrisabz, Qarshi, Denov, Termiz, G'uzor, Boysun kabi o'nlab shaharlari katta imkoniyat va sharoitlarga ega. Buning uchun mazkur ijtimoiy sohalarda ham xususiyashtirish jarayonlarini yanada faollashtirish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirib borish talab etiladi. Hozirgi vaqtda shahar joylardagi ta'lim, sog'liqni saqlash, fan va san'at singari ijtimoiy sohalarda davlat hissasi katta bo'lgani holda, shahar aholisiga transport, kommunal va maishiy xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanish, turizm va dam olish sohalari deyarli to'laligicha xususiy sektorga tegishli.

Xizmatlar sohasi. Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ya'ni xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi (2022-yil yakunlari bo'yicha yalpi ichki mahsulot 41,5 foizi xizmat sohasida yaratilgan). Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi. Mazkur soha o'z ichiga aholiga bevosita xizmat ko'rsatuvchi aloqa va axborotlashtirish, moliyaviy, transport, uy-joy kommunal xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijara, madaniy, turizm va ekskursiya, jismoniy tarbiya va sport, sanatoriya-kurort va sog'lomlashtirish, yuridik va boshqa xizmatlarni oladi [3]. Shu sababdan ham aynan ushbu tarmoqning yaxshi shakllanishi shaharlarning ijtimoiy rivojlanishini belgilab beradi.

Xizmatlar hajmining o'sib borishi mahalliy budjetiga yuqori daromad keltirish barobarida shahar axolisini ish bilan ta'minlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1-rasm

Janubiy O'zbekistonda xizmatlar sohasi tarkibi (2022 yil yakunlar bo'yicha, foizda).



Manba: Qashqadaryo va Surxondaryo viloyat statistika boshqarmalari rasmiy saytlari www.qashstat.uz va www.surxonstat.uz ma'lumotlari.

Janubiy O'zbekistonda xizmatlar hajmi 2007-yilda 235,9 mlrd so'mga teng bo'lgan bo'lsa, 2022-yil yakunlariga ko'ra 16710,0 mlrd. so'mga yetdi yoki o'n yetti yil davomida 70,8 baravarga o'sdi. So'nggi yillarda mazkur soha tarkibida ham katta o'zgarishlar kuzatilib, aloqa, pullik tibbiyot va ta'lim, huquqiy yordam, bank-sug'urta xizmatlari hajmi oshdi; an'anaviy yo'lovchi tashish, uy-joy kommunal xo'jaligi, maishiy, madaniy, turizm va ekskursiya, sanatoriya-kurort va sog'lomlashtirish xizmatlari ulushi kamaygan bo'lsada, pullik xizmatlarning asosiy qismi hamon ushbu tarmoqlarga to'g'ri kelmoqda.

Jumladan, 2022-yil yakunlari bo'yicha mintaqa xizmatlar hajmining qariyb 70 foizi savdo, transport va moliyaviy xizmatlar hissasiga tegishli bo'ldi. Aloqa va axborotlashtirish, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijara, yashash va ovqatlanish, me'morchilik va shaxsiy xizmatlarining tez rivojlanib borayotganligi sababli ularning xizmatlardagi ulushi jami 20,8 foizga teng bo'lgan bo'lsa, boshqa tarmoqlar 10 foizni tashkil qilgan (1-rasm).

2-jadval

Janubiy O'zbekiston hududlarining aholi jon boshiga o'rtacha xizmat ko'rsatish hajmi bo'yicha guruhlanishi (2022 yil yakuniga ko'ra).

T/r	Aholi jon boshiga o'rtacha xizmatlar hajmi	Tuman va shaharlar nomi	soni	Jamiga nisbatan foizda
1.	3,0 mln so'mgacha	Ko'kdala, Oltinsoy, Chiroqchi, Uzun, Koson, G'uzor, Yakkabog'.	7	22,6
2.	3,1-4,0 mln so'm	Dehqonobod, Qamashi, Sho'rchi, Sariosiyo, Jarqo'rg'on, Angor, Sherobod, Muzrabod, Boysun, Denov, Bandixon.	11	35,4
3.	4,1-5,0 mln so'm	Shaxrisabz, Qumqo'rg'on, Kasbi, Nishon, Kitob, Qiziriq, Qarshi,	7	22,6
4.	5,1 mln so'm va undan yuqori	Qarshi, Termiz, Shaxrisabz shaharlari va Muborak, Termiz, Mirishkor tumanlari	6	19,4
Jami			31	100,0

Jadval Qashqadaryo va Surxondaryo viloyat statistika boshqarmalari rasmiy saytlari www.qashstat.uz va www.surxonstat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Mintaqa xizmatlar bozori nafaqat tarkib jihatdan, balki hududlar bo'yicha ham turlicha taqsimlangan. Aholi sonining ko'pligi va urbanizatsiya darajasining yuqoriligi bois, Qashqadaryo

viloyati qo'shnisidan ancha katta ustunlikka ega. Masalan, 2022-yildagi xizmatlar hajmining 3/5 qismiga yaqini Qashqadaryo (9561,3 mlrd. so'm) va 2/5 qismidan ortig'i Surxondaryo (7148,7 mlrd so'm) viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsada, xizmatlar hajmining o'rtacha aholi jon boshiga hisoblanganda viloyatlar o'rtasida deyarli tafovut yo'q. Ammo, iqtisodiy rayon pullik xizmatlar hajmining hududiy tahlili Janubiy O'zbekiston tuman va shaharlari o'rtasidagi katta farqlar borligini ko'rsatadi. Bu borada shahar va tumanlarini to'rt guruhga ajratish mumkin (2-jadval).

Xizmatlarning umumiy xajmiga ko'ra ham viloyatlarning ma'muriy markazlari Qarshi (4001,4 mlrd so'm) va Termiz (3251,2 mlrd so'm) shaharlari alohida ajralib turadi. Bu ikki shahar amalda butun mintaqa aholisiga xizmat ko'rsatadi va ularda deyarli barcha pullik xizmat turlari mavjud. Shuningdek, qulay transport geografik o'ringa ega, aholi zichligi yuqori va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari yaxshi rivojlangan Denov (1610,4 mlrd. so'm), Qumqo'rg'on (1202,2 mlrd. so'm), Koson (795,3 mlrd. so'm), Kitob (790,3 mlrd. so'm), Qarshi (727,6 mlrd. so'm) kabi tumanlar va Shaxrisabz (797,8 mlrd. so'm) shahrida xizmatlar geografiyasi va hajmi yuqori bo'lgan.

O'z navbatida, pullik xizmatlar turi va hajmining kengayib borishi hududlardagi aholining bandlik darajasi va real daromadlarining oshishiga, turmush sharoitining yaxshilanishiga, pirovard natijada qishloqlarda shahar muhitini yaratilishiga hamda yangi shaharchalarning rivojlanishida yetakchi omil sifatida xizmat qiladi.

Chakana savdo. Chakana savdo tarkibiga oziq-ovqat, spirtli ichimliklar, nooziq-ovqat mahsulotlarining sotilishi, shuningdek, umumiy ovqatlanish korxonalari kiradi. Butun respublikada bo'lgani singari, Janubiy mintaqada ham aholining yuqoridagi mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini asosan shahar manzilgohlari qondiradi va shunga mutanosib holda, tuman chakana savdo hajmining asosiy qismi tuman hamda QFY markazlari hisoblangan shahar va shaharchalarda joylashgan bozorlar, savdo do'konlari, umumiy ovqatlanish korxonalari hisobidan shakllanadi. Chakana savdo korxonalarini joylashtirishda shaharlarning (asosiy "markaziy o'rinlarning") iqtisodiy geografik mavqei, bajaradigan vazifasi, aholi soni va transport kommunikatsiyalari bilan ta'minlanganlik darajasi muhim ahamiyatga ega.

2022-yil yakunlariga ko'ra Janubiy O'zbekiston aholisiga 35594,4 mlrd. so'mlik chakana savdo xizmati ko'rsatilgan. Shundan, Surxondaryo viloyati 17428,5 mlrd. so'mlik va Qashqadaryo viloyati 18165,9 mlrd. so'mlik savdo xizmati to'g'ri keladi. Bundan ko'rinadiki, barcha iqtisodiy va ijtimoiy sohalar bo'yicha orqada bo'lgan Surxondaryo viloyati aynan chakana savdo hajmi bo'yicha Qashqadaryo viloyati bilan deyarli bir xil hajmga ega. Bunga, viloyatning geosiyosiy vaziyati, ya'ni Surxon vohasining bir yo'la uchta chet davlat bilan qo'shniligi ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Chakana savdo hajmining Surxondaryo viloyatida 41,5 foizi Denov va Termiz shaharlariga to'g'ri kelsa, Qashqadaryo viloyatida $\frac{1}{4}$ qismi birgina Qarshi shahri ulushiga tegishli (3-jadval). Iqtisodiy geografik o'rnining qulayligi bois, ushbu shaharlarda yirik va ixtisoslashgan (avtomobil va ehtiyot qismlar, xo'jalik va qurilish materiallari, chorva mollari, kiyim-kechak, dehqonchilik mahsulotlari va ulgurji savdo) bozorlar mavjud bo'lib, amalda ushbu bozorlar butun mintaqa aholisiga xizmat qiladi.

Oltinsoy, Sariosiyo, Uzun, Qumqo'rg'on va Boysun tumanlarining viloyat jami aholisiga nisbatan chakana savdodagi ulushining kam ekanligi, aholining ko'plab mahsulotlarga bo'lgan talabini Denov shahri hisobidan qondirishi bilan izohlanadi. Xuddi shunday vazifani Qarshi cho'li tumanlarida Qarshi, Surxon-Sherobod vohasida Termiz, Shaxrisabz-Kitob guruh tumanlarida Shaxrisabz shaharlari bajarishadi. Shuningdek, aynan mazkur shaharlar va xalqaro ahamiyatga ega avtomobil yo'llari o'tgan shahar manzilgohlarida yirik umumiy ovqatlanish korxonalari (restoran, to'yxona, choyxona, kafelar) joylashgan. Janubiy O'zbekistonda o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo hajmining mutlaq ko'rsatkichlari bo'yicha ham Qarshi, Shaxrisabz, Termiz shaharlari hamda Denov, Sho'rchi, Koson tumanlari yetakchilik qilishadi. Aholi jon boshiga chakana savdo indeksi bo'yicha Surxondaryoda Termiz shahri (2,621), Denov (1,599) va Sho'rchi (1,259) tumanlari viloyat ko'rsatkichidan (1,000) yuqori bo'lgan holda, urbanizatsiyalashuv jarayoni o'ta sust Bandixon (0,437), Sariosiyo (0,497), Uzun (0,653) va Termiz (0,658) tumanlarida ancha past.

**Janubiy O'zbekiston tumanlarida chakana savdo ko'rsatish hajmi
(2022-yil yakunlari bo'yicha)**

T/r	Hududlar	Aholisi, jamiga nisbatan foizda	Urbanizatsiya darajasi, foizda	Chakana savdo, jamiga nisbatan foizda	Chakana savdo, aholi jon boshiga	
					ming so'm	indeks
I	Surxondaryo viloyati	100,0	36,2	100,0	6280,5	1,000
1.	Angor	5,0	48,2	4,6	5782,6	0,921
2.	Bandixon	2,9	18,3	1,3	2743,3	0,437
3.	Boysun	4,3	41,7	4,1	5950,3	0,947
4.	Denov	14,6	35,5	23,3	10043,8	1,599
5.	Jarqo'rg'on	8,3	20,2	5,2	3982,8	0,634
6.	Muzrabot	5,4	36,8	4,4	5120,6	0,815
7.	Oltinsoy	6,7	40,0	4,0	3721,2	0,593
8.	Sariosiyo	7,9	19,3	3,9	3124,2	0,497
9.	Termiz	2,9	30,9	1,9	4131,9	0,658
10.	Uzun	6,6	23,2	4,3	4098,4	0,653
11.	Sherobod	7,3	30,0	6,1	5188,7	0,826
12.	Sho'rchi	7,9	34,9	10,0	7909,8	1,259
13.	Qiziriq	4,3	26,3	4,3	6227,7	0,992
14.	Qumqo'rg'on	8,9	32,7	4,4	3104,5	0,494
15.	Termiz shahri	7,0	100,0	18,2	16462,7	2,621
II	Qashqadaryo viloyati	100,0	43,1	100,0	5272,7	1,000
1.	Dehqonobod	4,5	18,9	3,3	3891,0	0,738
2.	Kasbi	6,0	38,6	4,1	3611,2	0,685
3.	Kitob	7,9	37,3	5,2	3448,9	0,654
4.	Koson	8,8	52,6	8,1	4869,9	0,924
5.	Ko'kdala	5,3	15,8	3,2	3168,9	0,601
6.	Mirishkor	3,6	37,7	3,6	5189,0	0,984
7.	Muborak	2,6	79,5	2,7	5379,4	1,020
8.	Nishon	4,7	60,4	3,9	4411,8	0,837
9.	Chiroqchi	7,5	28,7	8,2	5765,1	1,093
10.	Shaxrisabz	6,7	24,1	3,3	2579,5	0,489
11.	Yakkabog'	7,9	32,6	5,5	3658,3	0,694
12.	Qamashi	8,2	23,7	7,3	4649,5	0,882
13.	Qarshi	7,6	36,3	3,9	2683,3	0,509
14.	G'uzor	6,2	23,5	4,0	3415,6	0,648
15.	Shaxrisabz shahri	4,2	100,0	8,3	10519,8	1,995
16.	Qarshi shahri	8,3	100,0	25,5	16218,1	3,076

Jadval Qashqadaryo va Surxondaryo viloyat statistika boshqarmalari rasmiy saytlari www.qashstat.uz va www.surxonstat.uz ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

Aholi jon boshiga chakana savdo indeksi Qashqadaryo viloyatida ham urbanizatsiya darajasi yuqori bo'lgan Qarshi (3,076) va Shaxrisabz (1,995) shaxarlarida, Muborak (1,120), Koson (0,926) tumanlarida katta, shuningdek markaziy shaharlardan ancha olisda joylashgan va Chiroqchi (1,093), Mirishkor (0,984), Dehqonobod (0,738) tumanlarida nisbatan yuqori. Ammo, Qarshi (0,509), G'uzor (0,648), Shaxrisabz (0,544), Kitob (0,654), Yakkabog' (0,665) va Ko'kdala (0,601) tumanlarida chakana savdo indeksi juda past. Bunga mazkur tumanlarning viloyat ma'muriy va mintaqaviy markazi (Qarshi va Shaxrisabz shaharlari) bilan yaqinligi natijasida ularning bozorlaridan foydalanishi ham sabab bo'lgan. Bundan xulosa qilish mumkinki, hududlarning chakana savdo hajmi yirik shaharlar yaqinida joylashgan tumanlarda past, aksincha, markaziy shaharlardan uzoqlashgan sari savdo miqdori ham oshib boradi. Chakana savdoda mintaqaviy markazlar va shaharlarning iyerarxik pog'onalari yaqqol aks etadi.

XULOSA

Umuman olganda, Janubiy O'zbekistonda ijtimoiy sohalarining rivojlanishi urbanizatsiya jarayonlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning yuqori bo'g'ini va asosiy markazlari aynan shahar

joylarda tarkib topgan. Bu xususda I pog'onada viloyat markazlari – Qarshi va Termiz, II pog'onada "mintaqaviy markazlar" Shaxrisabz, Denov, III pog'onada qishloq tumanlari markazlari, IV bosqichda QFY markazlari va so'nggi, ya'ni V pog'onada qishloq aholi punktlari turadi[5]. Ularning barchasi birgalikda mintaqada ijtimoiy sohalarning hududiy tashkil etish tizimini belgilab beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Доманский Р. Экономическая география: динамический аспект. – М.: Новый хронограф, 2010. – 376 с. (Domanski R. Economic geography: dynamic aspect. – М.: New Chronograph, 2010. – 376 p.)
2. Межевич М. Н. Социальное развитие и город. – Л.: Наука, 1979. – 176 с. (Mezhevich M. N. Social development and the city. – L.: Nauka, 1979. – 176 p.)
3. Назаров М. И., Тожиева З. Н. Ижтимоий география. – Т., 2003. – 92 б. (Nazarov M. I., Tojjeva Z. N. Social geography. - T., 2003. - 92 p.)
4. Солиев А., Назаров М. Ўзбекистон қишлоқлари (Қишлоқ жойлар географияси). Т.: "Fan va texnologiya", 2009. – 212 б. (Soliev A., Nazarov M. Villages of Uzbekistan (Geography of rural areas). Т.: " Fan va texnologiya ", 2009. - 212 p.)
5. Қурбанов П.Р. Жанубий Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари. Монография. -Т.: «MUMTOZ SO`Z». 2019 йил. – 180 б. (Kurbanov P.R. Urbanization processes in South Uzbekistan. Monograph. -Т.: " MUMTOZ SO`Z ". 2019 year. - 180 p.)
6. Олий таълим муассасалари рўйхати (egov.uz) <https://data.egov.uz/data/6102947d2a2e256d868e8365>
(List of higher education institutions(egov.uz) <https://data.egov.uz/eng/data/6102947d2a2e256d868e8365>)